

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi  
Texnik jihatdan tartibga solish agentligining Ichki audit xizmati faoliyati  
to'g'risida**

Xizmat O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Texnik jihatdan tartibga solish agentligining 2024 yil 12 avgustdagi 30-sonli buyrug'i bilan 1 ta shtat birligidan iborat mustaqil tarkibiy tuzilma sifatida tashkil etilgan va 1 ta shtat birligidan iborat, unda 1 nafar ichki audit milliy malaka sertifikatiga ega bo'lgan xodim faoliyat yuritib kelmoqda.

Xizmat o'z faoliyatida Agentlik markaziy apparati tarkibiy bo'linmalarini hamda tizimdagi 2 (ikki) ta tashkilotlar hamda muassasalarni qamrab olgan.

Agentlikning yuqoridagi buyrug'i bilan tasdiqlangan markaziy apparati tuzilmasiga ko'ra, Xizmatning to'g'ridan-to'g'ri Agentlik direktoriga bo'ysunuvi ta'minlangan.

Agentlikning Moliyaviy ichki audit xizmati nizomi, unda Xizmatning faoliyatini tashkil etish, uning vazifalari va funktsiyalari, huquqlari, majburiyatlari, javobgarligi hamda hisobdorligi belgilangan.

Shuningdek, Moliyaviy ichki audit xizmati xodimining lavozim yo'riqnomasi Ichki audit xizmati to'g'risidagi namunaviy nizomga muvofiq ishlab chiqilgan hamda Agentlik direktori tomonidan 2024 yil 10 oktyabrda tasdiqlangan.

Xizmat tomonidan ichki audit tadbirlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Texnik jihatdan tartibga solish agentligi direktori tomonidan tasdiqlangan yillik rejaga asosan amalga oshiriladi.

Xizmat tomonidan 2024 yilning 4-choragida ichki audit yillik rejasiga kiritilgan ob'ektlarda audit tadbirlarini o'tkazish rejalashtirilgan.

Moliyaviy ichki audit xizmati

bosh mutaxassisi

G'. Haydarov